O'zbekiston Respublikasi ham global ekologik tashabbuslarga faol qo'shilib, 2018-yilda Parij bitimini ratifikatsiya qildi va 2030-yilgacha issiqxona gazlari chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirish bo'yicha milliy majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi. Shu munosabat bilan mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Bunday sharoitda yashil soliqlar, jumladan uglerod solig'i, ekologik muammolarni moliyaviy vositalar orqali hal qilish bilan birga, soliq tizimini yanada takomillashtirish va davlat budjeti daromadlarini ko'paytirish imkonini ham beradi. O'zbekistonda uglerod solig'ini joriy etish jarayoni o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional sharoitlar bilan bog'liq. Sanoat tarmoqlari texnologik jihatdan eskirgan, aholi va tadbirkorlik subyektlarining ekologik soliq'larga tayyorlik darajasi past bo'lishi mumkin. Shu sababli bu jarayon bosqichma-bosqich, aniq reja va mexanizmlar asosida olib borilishi lozim.

Ushbu maqolada yashil soliqlarni, xususan karbon solig'ini joriy qilish orqali O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada mavjud kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar hamda tahdidlar (SWOT tahlil asosida) chuqur o'rganilib, amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil soliqqa tortish va uning soliq ma'muriyatchiligiga ta'siri bo'yicha jahonning ko'plab taniqli iqtisodchi olimlari va tashkilotlari tadqiqotlar olib borgan va olib bormoqda. Yashil soliq siyosatining asoschilaridan biri bo'lgan ingliz iqtisodchisi A.C. Pigou (1920) *The Economics of Welfare* asarida eksternallar nazariyasini ilgari surgan va uning g'oyalari bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida joriy qilingan yashil soliqlar, jumladan uglerod va ekologik soliqlariga asos bo'lib xizmat qiladi. Uning fikriga ko'ra, bozor iqtisodiyotida ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va iste'mol jarayonlari jamiyatga zarar yetkazadi, ammo bu zarar mahsulot narxida aks etmaydi. Shu sababdan, u atrof-muhitga zarar yetkazuvchi korxonalar va ayrim iste'molchilar ushbu zararlarni uchun qo'shimcha soliq to'lashlari kerak degan fikrni bildiradi va Pigou soliqlarini (Pigovian taxes) taklif qiladi.

Simon Kuznets (1955) *Economic Growth and Income Inequality* nomli maqolasida ekologik Kuznets egri chizig'i (EKC) nazariyasini ishlab chiqqan. Bu modelning mazmuni shundan iboratki, iqtisodiy o'sishning dastlabki bosqichlarida atrof-muhit ifloslanishi darajasi ortadi, lekin muayyan paytdan keyin daromadlar oshgani sari hukumat va jamiyat ekologik muammolarga e'tibor qaratishni boshlaydi va turli xil iqtisodiy dastaklar hamda texnologik innovatsiyalar yordamida zararni kamaytirishga harakat qiladi. Ushbu nazariya yashil soliqlar yordamida atrof-muhitni muhofaza qilish strategiyalarini iqtisodiy o'sish bilan uyg'unlashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

Yevropa Ittifoqi 2005-yilda ETS (Emissions Trading System) ni joriy etgan bo'lib, kompaniyalarga belgilangan miqdorda chiqindi, ya'ni uglerod gazlarini chiqarish kvotasini beradi. Agar kompaniyalar ushbu kvotalardan oshsa, qo'shimcha ruxsatnomalar to'lashga to'g'ri keladi yoki chiqindilarni kamaytirishi kerak. Ushbu tizim CO₂ emissiyalarini kamaytirishda muvaffaqiyatli bo'lib, iqtisodiyotni "yashillash" yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yevropa Ittifoqining ETS tizimi yashil soliq siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatibgina qolmay, uglerod chiqindilarini kamaytirish bo'yicha yangicha yondashuvni boshlab berdi.

2017-yilda Nobel mukofoti sovrindori J. Stiglitz va N. Stern "Uglerod narxlari bo'yicha yuqori darajadagi komissiya hisoboti" (Report of the High-Level Commission on Carbon Prices) ni e'lon qildi. Ushbu hisobotda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda uglerod solig'ining roli muhimligi va samarali narx belgilash strategiyalari chuqur tahlil va muhokama qilingan.

Simon Dresner va uning hammualliflari tomonidan 2016-yilda "Social and political responses to ecological tax reform in Europe: an introduction to the special issue" nomli maqola chop etilgan bo'lib, unda Yevropada ekologik soliq islohotlariga ijtimoiy va siyosiy munosabatlar o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolani yozish jarayonida tizimli yondashuv asosida bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — O'zbekiston sharoitida yashil soliqqa tortish tizimining amaldagi holatini tahlil



qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Maqolada tahliliy va solishtirma usul, statistik usul hamda SWOT tahlili metodlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global miqyosda atrof-muhit muammolariga e'tibor ortib borayotgan bir paytda, O'zbekiston ham fiskal siyosatini ekologik maqsadlar bilan muvofiqlashtirish zarurligini anglab yetmoqda. Mamlakatning barqaror rivojlanishga sodiqligi xalqaro tashabbuslarda faol ishtiroki, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan hukumat dasturlari va ekologik zararli faoliyatlar bilan bog'liq tashqi xarajatlarni ichkilashtirishga yo'naltirilgan soliq islohotlarida o'z ifodasini topmoqda.

2018-yilda O'zbekiston Parij bitimini ratifikatsiya qildi va 2030-yilgacha issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 10 foizga qisqartirish bo'yicha majburiyat oldi. Ushbu maqsadga erishish uchun mamlakatda energiya samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hamda Orolbo'yidagi ekologik tanglik oqibatlarini yumshatishga qaratilgan bir qator strategik dasturlar va huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda.

Yashil soliqlarning joriy etilishi nafaqat ekologik tashabbuslar uchun barqaror moliyaviy manbani ta'minlaydi, balki fuqarolar va korxonalarni ekologik mas'uliyatli harakatlarga undash vositasidir. Tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish va ifloslanishga soliq solish orqali zararli faoliyatni kamaytirish hamda ekologik toza texnologiyalarni rag'batlantirish mumkin. Shuningdek, bu yondashuv O'zbekistonning xalqaro ekologik tashabbuslarga integratsiyalashuvini kuchaytiradi.

Yashil soliqlar ekologik barqarorlikni ta'minlash va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatlarni kamaytirish uchun mo'ljallangan fiskal vositalardir. Bu soliqlar orqali davlat ekologik mas'uliyatni oshirish va resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirishni maqsad qiladi. Yashil soliq turlari atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Quyida O'zbekistonda joriy etilishi mumkin bo'lgan asosiy yashil soliq turlari keltirilgan:

Uglerod solig'i (Carbon Tax): Atmosferaga chiqariladigan CO₂ emissiyasiga solinadigan soliq bo'lib, uni kamaytirish uchun rag'bat yaratadi.

Energetika soliqlari (Energy Taxes): Neft, gaz va ko'mir kabi an'anaviy yoqilg'i turlaridan foydalanishni cheklash maqsadida joriy etiladi.

Transport va avtomobil soliqlari: Benzin iste'moli va avtomobilning chiqindi gazlari miqdoriga qarab belgilanadi.

Atrof-muhit ifloslanishiga soliq: Suv, havo va tuproq ifloslanishi uchun korxonalarga qo'yiladigan soliqlar.

Chiqindilar va qadoqlash materiallariga soliq: Plastmassa va boshqa qayta ishlanmaydigan materiallar uchun maxsus soliqlar joriy qilinishi mumkin.

Yashil soliqlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hukumat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o'rtasida kuchli hamkorlik talab etiladi. Manfaatdor tomonlarni yashil soliq tashabbuslarini ishlab chiqish va joriy etish jarayoniga jalb qilish keng qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi va yangi soliq choralari bo'yicha rioya qilishni rag'batlantiradi. Buning uchun davlatda monitoring va amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur.

Yashil soliqlarni samarali boshqarish uchun kuchli monitoring tizimi yaratish va uning samaradorligini doimiy ravishda baholash muhimdir. Bu tizim biznes subyektlari uchun aniq hisobot talablari va soliq to'lashning shaffofligini oshiruvchi choralarni o'z ichiga oladi, bu esa javobgarlik va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga yordam beradi. Yashil soliq tizimini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish uchun fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarini barqaror amaliyotlar hamda yashil soliqlarning mohiyati haqida xabardor qiluvchi ta'lim kampaniyalari muhim rol o'ynaydi. Xabardorlikni oshirish soliqlarga rioya qilishni yaxshilaydi va ekologik mas'uliyatli xatti-harakatlarni rag'batlantiradi.

Yashil soliqlar atrof-muhit va iqtisodiyot uchun bir qancha muhim afzalliklarni taqdim etadi. Moliya tizimini ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish orqali yashil soliqlar nafaqat atrof-muhitga zarar yetkazilishining oldini oladi, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Yashil soliqlar davlatning ekologik maqsadlariga erishishini ta'minlab, umuman olganda, barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylanadi.

Ekologik va iqtisodiy manfaatlar: Yashil soliqlarning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, ular jismoniy shaxslar, korxonalar va sanoat tarmoqlarini barqarorlikka intilishiga undaydi. Atrof-muhitga zarar yetkazadigan mahsulot va faoliyatlarga soliqlar joriy etish orqali hukumat ularni iqtisodiy jihatdan kamroq jozibador qilib, ekologik toza alternativallarni targ'ib qiladi. Bu o'zgarish natijasida ifloslanish darajasining kamayishi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ta'minlanadi, bu esa sog'lom ekotizim va jamiyatga yo'l ochadi. Ushbu holat xalqaro tendensiyalarni ham qo'llab-quvvatlaydi, chunki ko'plab davlatlar iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda ekologik soliq siyosatlarini joriy qilishni maqsad qilgan.



Ekologik loyihalar uchun daromad manbai: Yashil soliqlar hukumat uchun qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi. Ushbu soliqlardan tushgan mablag' ekologik muhofaza loyihalariga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga va atrof-muhitga yetkazilayotgan zararni kamaytirishga yo'naltirilishi mumkin. Shuningdek, bu mablag'lar tabiiy resurslarni qayta tiklash, barqaror suv va energiya boshqaruvi tizimlarini yaratish, shuningdek atrof-muhitni tiklash va saqlashga yordam beradi. Natijada, ekologik texnologiyalar va barqaror amaliyotlar rivojlanishi bilan birga, davlat ekologik siyosatining samaradorligi ham ortadi.

Iqtisodiy barqarorlik va innovatsiyalarni rag'batlantirish: Yashil soliqlarning joriy etilishi sanoat tarmoqlarida innovatsiyalarni jadallashtiradi, chunki korxonalar yuqori soliqlardan qochish uchun ekologik toza texnologiyalarga o'tishga harakat qiladi. Bu jarayon uzoq muddatli xarajatlarni kamaytirish va ekologik jihatdan barqaror bo'lgan bozor sharoitida raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, yagona soliq siyosati sanoat tarmoqlari o'rtasida teng sharoitlar yaratib, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Yirik korxonalar va kichik biznesning ekologik standartlarga moslashuvi o'zaro raqobatni oshirishga va yangi texnologiyalarga investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi. Bu amaliyotlar Yevropa Ittifoqining yashil soliq siyosatlaridan olingan samarali tajribalar asosida rivojlantirilishi mumkin.

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash: Yashil soliqlarning muhim turlaridan biri bo'lgan karbon solig'i iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda samarali vosita hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson faoliyati issiqxona gazlari emissiyasi orqali global isish jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Karbon solig'ining joriy etilishi yuqori uglerod chiqindilariga ega faoliyatlarga to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy to'siq qo'yib, davlatning iqlim maqsadlariga erishishiga va xalqaro majburiyatlarga rioya qilishiga yordam beradi. Ushbu soliq nafaqat ichki ekologik muammolarni hal qilishda, balki global ekologik hamkorlikni kuchaytirishda ham muhim rol o'ynaydi. Davlatlar shu soliqlar orqali o'z xalqaro shartnomalariga javobgar bo'lishadi va iqlim maqsadlariga erishishda aniq choralar ko'rishadi.

Ijtimoiy adolatni ta'minlash: Ba'zi ekologik soliqlarning regressiv xarakterga ega bo'lishi bo'yicha xavotirlar mavjud bo'lsa-da, soliqlardan tushgan daromadni samarali taqsimlash orqali bu salbiy ta'sirlar yumshatilishi mumkin. Masalan, mablag'larning bir qismini ijtimoiy himoya dasturlariga yo'naltirish orqali kam daromadli aholining moliyaviy yukini kamaytirish mumkin. Bu yashil soliqlarning ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi muhim ahamiyatini ko'rsatadi. Jamoatchilikni jalb qilish va shaffoflikni ta'minlash orqali hukumat yashil soliqlarga ijtimoiy qo'llab-quvvatlovni oshirishi va ijtimoiy tenglik muammolarini hal qilishi mumkin. Shu bilan birga, davlatning boshqaruv sifati va siyosiy ishonchni oshirish bu soliqlarni amalga oshirishning ijtimoiy qabul qilinishini kuchaytiradi.

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda boshqa davlatlarning tajribalari va yashil soliqlarni joriy qilishdagi xatolarni o'rganish O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Boshqa mamlakatlarning tajribasini tahlil qilish orqali yashil soliqlarni samarali va adolatli tarzda joriy etishning asosiy jihatlari aniqlanishi va xatolar oldini olish mumkin. Quyida ba'zi misollar keltirilgan:

Yevropa Ittifoqi (YI) tajribasi: YI yashil soliqlarni joriy etishda eng muvaffaqiyatli tajribalardan birini yaratdi. Karbon solig'i iqlim o'zgarishiga qarshi samarali vosita sifatida ishlatildi, energiya samaradorligini oshirish va toza energiya manbalariga o'tish jarayonini tezlashtirdi. Shuningdek, CO₂ emissiyalari bo'yicha birjalar tashkil etilib, kompaniyalar o'z chiqindilarini kamaytirishga harakat qildi.

Xatolar: Ba'zi mamlakatlarda yashil soliqlar regressiv tarzda joriy etilgan, bu esa past daromadli oilalar uchun iqtisodiy yukni oshirdi. Energiya narxlari oshgan sari, energiya sarfini kamaytirish choralari amalga oshirish qiyinlashdi. YI bu holatni yumshatish uchun ijtimoiy himoya dasturlari va subsidiyalarni ishlab chiqdi, ammo bunday siyosatlarining barcha davlatlar uchun samaradorligi kafolatlanmagan.

Kanadaning karbon solig'i tajribasi: Kanada 2019-yilda karbon emissiyasiga soliqni bosqichma-bosqich joriy etdi, bu orqali atrof-muhitga zararli chiqindilarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilindi. Soliq yashil energiya texnologiyalarini rivojlantirishga turtki berdi.

Xatolar: Boshlang'ich bosqichlarda sanoat va energetika sektori tomonidan qarshilik yuzaga keldi. Ba'zi tarmoqlar subsidiya yoki yengilliklar talab qilib, soliqdan tushgan daromadni maqsadli ekologik loyihalarga yo'naltirish samarali bo'lmadi. Shu bilan birga, biznes va iste'molchilar narx oshishini ta'kidlab, soliqni joriy etishga qarshi norozilik bildirdi.

Shvetsiyaning energiya soliqlari: Shvetsiya 1990-yillardan boshlab energiya solig'ini joriy etdi. Soliqdan tushgan mablag'larni yashil texnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya manbalariga yo'naltirish orqali iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirdi va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda jahon liderlaridan biriga aylandi.

Xatolar: Yashil soliqlarni joriy etishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni to'liq amalga oshirish qiyinchiliklari mavjud edi. Ba'zi kichik va o'rta kompaniyalar yangi soliqlarga qarshilik bildirdi, chunki energiya sarfini kamaytirish uchun zarur resurslar yetarli emas edi. Bu davlatning yordam mexanizmlarini kuchaytirishni talab qildi.

Janubiy Koreya tajribasi: Janubiy Koreya 2009-yilda karbon solig'ini joriy etishni rejalashtirdi, ammo iqtisodiy pasayish davrida siyosatni bekor qilindi. 2015-yilda karbon solig'ini yana tiklashga qaror qilindi va energiya samaradorligi hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritildi.



Xatolar: Iqtisodiy turg'unlik va energiya narxlarining o'zgarishi yashil soliqlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yashil soliqlarni joriy etishda iqtisodiy sharoitlarni to'g'ri baholash va soliqning amaliy ta'sirini oldindan prognoz qilish zarur.

O'zbekiston hukumati karbon solig'ini joriy etishda xalqaro tajriba, ijtimoiy himoya mexanizmlari va sanoatga ta'sirini inobatga olgan holda harakat qilishi lozim. Bu masala nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va institutsional jihatdan ham keng ko'lamli yondashuvni talab qiladi. Shu bo'limda karbon solig'i bo'yicha kuchli va zaif tomonlar, mavjud imkoniyatlar va ehtimoliy tahdidlar (SWOT tahlil) asosida tahlil qilinadi. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitida ushbu soliq turining real istiqbollari va cheklovlarini aniqlash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda karbon solig'i joriy etilishining SWOT tahlili

Kuchli jihatlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
Parij kelishuvi doirasida xalqaro majburiyatlar mavjud	Energiya-intensiv sanoat tarmoqlari texnologik jihatdan eskirgan
Energiya samaradorligini oshirishga turtki beradi	MRV (monitoring, reporting, verification) tizimi yetarli darajada rivojlanmagan
Davlat budjetiga qo'shimcha daromad manbai	Tadbirkorlar va aholining ekologik soliq borasidagi bilim darajasi past
Raqamli soliq ma'lumotlar bazasi shakllanmoqda	Soliq yukining ortishi narxlar oshishiga olib kelishi mumkin
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
Yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish	Raqobatbardoshlikning pasayishi va ishlab chiqarish tannarxining ortishi
Yevropa Ittifoqining karbon cheklovlariga moslashish	Sanoat lobbilari tomonidan siyosiy qarshilik
Xalqaro moliyaviy va texnik yordam olish imkoniyati	Investitsiyalarning boshqa davlatlarga yo'naltirilish xavfi
Karbon solig'i tushumlarini ekologik loyihalarga yo'naltirish	Past daromadli qatlamlarga salbiy ijtimoiy ta'sir

Karbon solig'ini joriy etish O'zbekistonning xalqaro majburiyatlarini, xususan, Parij bitimi doirasidagi iqlim o'zgarishiga qarshi kurashga oid strategiyalarini amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu soliq energiya samaradorligini oshirishga rag'batlantiradi va davlat budjetiga barqaror qo'shimcha daromad manbai sifatida qaraladi. Ayniqsa, so'nggi yillarda raqamli soliq ma'lumotlar bazasining shakllanishi ushbu mexanizmni samarali boshqarish uchun qulay infratuzilmani yaratmoqda.

Karbon solig'i O'zbekiston uchun yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirishda kuchli impuls bo'lishi mumkin. Yevropa Ittifoqi kabi asosiy savdo hamkorlarining karbon cheklovlariga moslashish, shu bilan birga, xalqaro moliyaviy institutlardan texnik va moliyaviy yordam olish imkoniyati mavjud. Eng asosiysi, ushbu soliqdan tushgan mablag'lar ekologik loyihalarga yo'naltirilsa, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

Biroq, karbon solig'i joriy etilishi ishlab chiqarish tannarxining ortishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu holat sanoat lobbilari tomonidan siyosiy bosimga sabab bo'lishi, hatto sarmoyadorlarning boshqa bozorlarga yo'naltirilishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, soliqning noto'g'ri dizayni past daromadli ijtimoiy guruhlariga nisbatan adolatsizlik yaratib, ijtimoiy norozilikni kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Karbon solig'ining joriy etilishi O'zbekiston uchun nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki davlat budjetini diversifikatsiya qilish va yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish vositasi bo'lishi mumkin. SWOT tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud kuchli tomonlar va imkoniyatlar ushbu soliq turini muvaffaqiyatli joriy etish uchun yetarli asos yaratadi. Shu bilan birga, zaif tomonlar va ehtimoliy tahdidlar jarayonni ehtiyotkorlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirish zarurligini bildiradi.

Tavsiyalar:

Texnologik modernizatsiya: Karbon solig'i joriy etilishidan oldin sanoat tarmoqlarida energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni joriy etish uchun davlat subsidiyalari va grant dasturlari yo'lga qo'yilishi lozim.



MRV tizimini mustahkamlash: Monitoring, hisobdorlik va verifikatsiya tizimlarini rivojlantirish orqali CO₂ chiqindilarini aniq va ishonchli nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

Aholi va biznesni xabardor qilish: Ekologik soliqlar haqida keng jamoatchilik va tadbirkorlar o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish zarur. Bu qarshilikni kamaytiradi va qo'llab-quvvatlashni oshiradi.

Ijtimoiy adolatga asoslangan yondashuv: Karbon solig'i daromadining bir qismini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish, soliqning regressiv ta'sirini yumshatadi.

Ekologik loyihalarni moliyalashtirish: Soliq tushumlarining ma'lum foizi qayta tiklanuvchi energiya, o'rmonlarni tiklash va ifloslanishga qarshi loyihalarga yo'naltirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси (янги таҳрир). – Т.: Norma, 2022.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони ПФ–186-сон 04.10.2022 й. “Яшил иқтисодиётга ўтишнинг институционал ва ҳуқуқий асосларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”. –: <https://lex.uz/ru/docs/6204654>
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (2018). Parij bitimini ratifikatsiya qilish to'g'risida (2015-yil 12-dekabr, Parij). LRU-491-son, 2-oktabr. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/6822100>
4. OECD. (2021). Taxing Energy Use 2019: Using Taxes for Climate Action. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/058ca239-en>
5. IMF. Carbon Taxation for Developing Countries: Principles and Policy Considerations. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2021. – 88 p.
6. European Commission. Carbon Border Adjustment Mechanism (CBAM) Report. – Brussels, 2023. –: <https://ec.europa.eu>
7. Canadian Government. (2019). Carbon Pollution Pricing Act. <https://www.canada.ca/en/departement-finance/programs/tax-policy/carbon-pollution-pricing-act.html>
8. United Nations Environment Programme (UNEP). Green Fiscal Policy and Sustainable Development. – Nairobi: UNEP, 2020. – [Электрон манба] – Режим доступа: <https://www.unep.org>
9. Statista. Carbon dioxide emissions in Uzbekistan from 2010 to 2023. –: <https://www.statista.com>
10. Kuznets S. Economic Growth and Income Inequality // The American Economic Review. — 1955. — Vol. 45, No. 1. — P. 1–28.
11. Pigou A.C. The Economics of Welfare. — London: Macmillan, 1920. — 322 p.
12. European Union. Emissions Trading System (ETS). — 2005. — [online] Available at: https://ec.europa.eu/clima/policies/ets_en (accessed: 2025).
13. Stiglitz J., Stern N. Report of the High-Level Commission on Carbon Prices. — Washington, DC: The World Bank, 2017. — 60 p.
14. Dresner S., Dunne L., Clinch P., Beuermann C. Social and political responses to ecological tax reform in Europe: an introduction to the special issue // Energy Policy. — 2016. — Vol. 96. — P. 1–5.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>